

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir davomida tashkil etilgan kitoblar yarmarkasi ko‘rgazmasi tadbir

BAYONNOMASI

2026-yil 10-fevral

ATB


Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir davomida tashkil etilgan kitoblar yarmarkasi ko‘rgazmasi tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbirning asosiy maqsadi buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlarini munosib nishonlash, ularning boy adabiy va ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish, talaba-yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda ilm-ma’rifatga bo‘lgan qiziqishni oshirish.



Mazkur sana munosabati bilan universitet hududida kitoblar yarmarkasi ko‘rgazmasi tashkil etildi. Yarmarkada buyuk ajdodlarimizning asarlari, ular haqidagi ilmiy va badiiy adabiyotlar, tarixiy manbalar, shuningdek, zamonaviy adabiyot namunalari keng namoyish etildi.

Xususan, ko‘rgazmada:

- Alisher Navoiyning devonlari va ilmiy-tanqidiy nashrlari;
- Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari hamda uning turli nashrlari;
- Buyuk mutafakkirlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar;
- O‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalari;
- Ma’naviy-ma’rifiy hamda tarixiy asarlar o‘rin oldi.



Kitoblar yarmarkasi davomida talabalar va professor-o'qituvchilar faol ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan adabiyotlar bilan tanishdilar hamda xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ayrim talabayoshlar tomonidan buyuk mutafakkirlar ijodidan parchalar o'qib eshittirildi, ularning g'oyalari va hikmatli so'zlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Yarmarka davomida kitobxonlikning ahamiyati, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda adabiyotning o'rnini haqida ma'ruzalar ham tashkil etildi. Tadbir ishtirokchilari tomonidan ajdodlarimizning boy merosini chuqur o'rganish va uni keng targ'ib etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekani ta'kidlandi.



Kitoblar yarmarkasi ko'rgazmasi talaba-yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularni mutolaa madaniyatiga yanada yaqinlashtirish hamda buyuk ajdodlarimiz merosiga bo'lgan hurmat-ehtiromni mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadbir yuqori saviyada, tashkiliy jihatdan puxta va ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektor:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova